

**QUNDUZXON HUSANBOYEVA, MUTALLIB HAZRATQULOV,  
FARHOD XOLSAIDOV**

# **ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI METODIKASI**

**Qunduzxon HUSANBOYEVA,  
Mutallib HAZRATQULOV,  
Farhod XOLSAIDOV**

# **ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI METODIKASI**

**Oliy o'quv yurtlarining pedagogika fakultetlari  
tala'chalari va boshlang'ich sinflar o'qituvchilari uchun**

## **DARSLIK**

**1-QISM**

**Toshkent  
"Innovatsiya-ziyo"  
2022**

UO'K: 37.091.33:811.512.133(075)

37.091.33:808.545(575)

KBK: 74.268.1 O'zb

H-84

Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F.

Ona tili va o'qish savodxonligi metodikasi./Darslik./- Toshkent:  
"Innovatsiya-ziyo", 2022. 252 bet.

Tafakkur jarayoni insonning ruhiyati bilan uzviy bog'liqlikda kechadi. Fikrlayotgan odamning ichki dunyosi qanchalik boy, dunyoqarashi nechog'lik keng, bilimi qay darajada chuqur bo'lsa, fikrlari, xulosalarining saviyasi ham shuncha baland bo'ladi. Teranlik, tiniqlik, mantiq, erkinlik, mustaqillik, badiiylik, ijodiylik inson tafakkuri darajasini ko'rsatuvchi ijoby xususiyatlardir. Odam dunyoni tafakkur orqali anglaydi, fikr va ruhiyat yordamida undan o'ziga xos tarzda ta'sirlanadi, xulosalar chiqaradi.

Mazkur Ona tili va o'qish savodxonligi metodikasi fani tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratilib, dastlab mavzularning nazariy ma'lumoti va Boshlang'ich sinflar uchun amaldagi Ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi matnlarning amaliy tahlili ham berilgan.

#### Maxsus muharrir:

Q. Yo'ldoshev – pedagogika fanlari doktori, professor.

#### Taqrizchilar:

I. Sulaymonov - filologiya fanlari doktori, dotsent;

A. Azimov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining  
2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli buyrug'i bilan nashrga tavsiya  
etilgan.

ISBN 978-9943-7259-7-3

Husanboyeva Q va boshq. 2022.

© "Innovatsiya-Ziyo", 2022.

## KIRISH SO'Z

Talabalar juda katta maqsadlar bilan oliy dargohga kelishadi. Har bir talaba botinan o'zidagi bitmas-tuganmas manbalarni ochib beradigan ustozni izlaydi. O'zlaridagi noyob istaklarni qanday ro'yobga chiqarishni, qanday oshkor qilishni bilmasliklari, o'zlari muhtoj narsalarga erisholmaganliklaridan so'ng oldingilarning bosgan izini, eski tendensiyani ta'lim jarayoni deb qabul qilishga majbur bo'ladilar. Bu jarayon kuni mazmunli o'tkazish, belgilangan tartib-qoidalarni bajarishga urinish, imkoni boricha yaxshi ko'rinish, boshqalarni, ayniqsa, ustozlarning aytganini qilish kabi motivlar asosida davom etaveradi.

Oliy ta'lim muassasida ta'lim berayotgan o'qituvchilar shunchaki ma'lumotlar bazasini yetkazish bilan shig'ullanishlari shart emas, ular talabaning ichki imkoniyatini ochish, ularni yangidan yangi loyihalar qilishga yo'naltirish, o'ziga bo'lgan ishonchni, imkoniyatni paydo qilib bera olish vazifasini bajarishi kerak.

Bugungi kunda oliy ta'limda dars berayotgan o'qituvchi quyidagi talablarga javob berishi shart:

1. Oliy ta'limda o'tilayotgan darslar ma'lumot berish bilan cheklanmasdan talabaning ichki imkoniyatlarini ochishga, loyihalar qilish, o'z sohasi bo'yicha yangilik kiritishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

2. Har bir darsning asosi kreativlikka, tanqidiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. O'tilayotgan mavzu biror maqola, tezis, kichik yangilik mundarijasini yaratishga yo'naltirilishi, yangiliklar, izlanishlar samaradorligiga erishilishga qaratilishi lozim. Barcha talaba ham birdek maqola yozolmasligi, yangilik yaratolmasligi mumkin, eng muhimi, harakat qilishlik o'z samarasini beradi. Bu jarayon oliy ta'limning eng muhim bilim berish metodi bo'lishi kerak.

3. Oliy ta'limda har bir darsda o'tilayotgan mavzuga oid biror yangilik, kashfiyot bo'lmas ekan bu darsni samarali dars

deb hisoblash mumkin emas. Har bir darsda mavzuga oid hech bo'lmaganda bitta yangi narsa anglanishi kerak. Masalan, adabiyot darsida ijodkorning qachon tug'ilib qayerda o'qigani, qaysi asarni qachon yozgani haqida ma'lumotlar birinchi planga chiqmasligi, balki yozgan asaridagi bitta foydali hikmat, hayot uchun qadrli qonuniyat anglanishi va kashf etilishi lozim.

Iqtisodiyot darslarida bank ishlari, kredit berish bilan bog'liq ma'lumotlar o'rniga bugungi kunda ushbu tizimni aynan mamalakatimizda qanday to'g'ri yo'lga qo'yilishi va rivojlantirish masalalari muammo tarzida o'rganilishi hamda hayotiy yechimi topilishi, amaliyotga joriylanishi tahlil etilishi kerak.

Ekologiya fanida atrof-muhit muammolari talabalar tashabbusi asosida o'rganilishi, darsda yechimi hal etilishi, lozim topilsa, xalqaro grantlarni shu muammolarga yo'naltirish, yangidan-yangi sermahsul variantlar o'ylab topilishi lozim.

Mana shu topilgan yangiliklar, topilmalar natijasiga dars qiymatini belgilab beradi. Oliy ta'limdagi dars mana shunday tashkil etilsagina uni samarali dars deb baholash mumkin. Oddiy qilib tushuntirganda dars jarayoni hayotdagi muammolarning asl yechimi uchun xizmat qilmas ekan, bu jarayonni oliy ta'limda o'tilayotgan dars deb hisoblash mumkin emas.

Oliy ta'limdagi aksariyat o'qituvchi va talabalar oldindan mavjud bilimlarni qayta ko'rib chiqish, nari borsa tahlil qilish, o'rgatish ishlari bilan o'ralashib qolishgan. Ayni paytda bulardan butunlay voz kechib, yangi yondashuvlarga amal qilish fursati yetdi.

Ushbu darslikda boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi metodikasini zamonaviy talablarga moslashtirib yaratish birinchi o'ringa qo'yildi. Bizga ma'lumki, bola maktabga kelgandan savod o'rgatish darslarini boshlaydi. Shu jarayonning o'zidan u nutq mashqlarini ham boshlashi, nutq

tafakkur bilan bog'liq rivojlanishi va shu alfozda fikrlaydigan o'quvchilar – fikr o'quvchilarini yetishtirish darslikning asosiy maqsadi qilib belgilab olindi.

Tadqiqotlardan ma'lumki, qoida va jumalarni shunchaki yodlab olish, yoki xotirada mavjud jumla va gaplarni talaffuzda takrorlash fikrlash emas. Fikrlash o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hayot bilan bog'lash, uning hayot uchun zaruriy qiymatini belgilay olish, har bir narsa va hodisaning asl mazmun-mohiyatiga kirib bora olishlikdir.

Ona tili va o'qish savodxonligi metodikasi fani o'quvchilarning tovush va harflarni o'rganish jarayonini osonlashtirish, qulaylashtirish bilan birga o'rganishdan maqsad va vazifalar nima ekanligining mazmunini ham o'zida ifodalaydi. Shuningdek, husnixatga o'rgatish, o'qishga o'rgatishda kontekstdan foydalanish birinchi o'ringa qo'yiladi. O'quvchi grammatik mavzularni o'rganib borish bilan birga nutqini, tafakkurini, dunyoqrashini, ruhiy imkoniyatlarini, ijodiy qobiliyatining cheklanmaganlik darajalarini ham anglab boradi.

Darslikda masofadan o'qitish mashg'ulotlariga ham alohida e'tibor qaratildi. Internet tarmog'ining moodle platformasiga joylashtirishga mo'ljallangan savol va topshiriqlar, testlar, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda boshlang'ich sinflarning amaldagi "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklari materiallaridan foydalanildi.

## **SAVOD O'RGATISH**

**(Yozuv va nutqga o'rgatish)**

### **SAVOD O'RGATISHNING TAYYORGARLIK DAVRIDA O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH. "ALIFBE" DARSLIGINING QURILISHI**

Savod o'rgatish davrining dastlabki birinchi haftasi o'quvchilarni savod o'rgatishga tayyorlash uchun ajratilib, "alifbegacha bo'lgan davr" deb ataladi.

Alifbegacha bo'lgan davrda o'qituvchi bolalarni dastlab maktab hayoti, uning ichki tartib-qoidalarini bilan tanishtiradi; o'quvchilar maktabda, darsda, tanaffus vaqtida, maktabdan tashqarida o'zlarini qanday tutishlari lozimligini o'rgatadi; shuningdek, maktab va uydagi kundalik rejimga ko'nikma hosil qilib unga odatlantira boradi.

Bu davrda o'qituvchi o'quvchilar jamoaviylikni tashkil etish va har bir o'quvchi shu jamoaning a'zosi ekanligini ular ongiga singdirish; bolalarga jamoa bo'lib ishlashning asosiy tartib-qoidalarini o'rgatish kabi vazifani bajaradi. O'quvchilarda dars jarayonida partada to'g'ri o'tirish, savol yoki javob berishdan oldin qo'l ko'tarish, hammaga eshitari qilib, shoshilmay, tutilmay gapirish, kitob va daftarlarini, shuningdek, sinfdagi jihozlarni ehtiyot qilib saqlash, tanaffusga chiqish va darsga kirishda chopmaslik kabi ko'nikmalarni hosil qila boradi.

Bolalar maktab binosi, tevarak-atrof bilan tanishtiriladi: ular o'qituvchining aytganlarini diqqat bilan tinglash, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish, savolga javob qaytarish va savol berishga, o'rtoqlarining javobini tinglashga

odatlantiriladi. Ayniqsa, o'quvchilarni o'z vazifasini tushunib, uni o'z vaqtida to'liq bajarishga odatlantirish, har bir o'quvchiga individual yondashib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini savod olishga qanchalik tayyor ekanligini vaqtida aniqlab olish savod o'rgatish darslarini to'g'ri uyushtirishga yaxshi yordam beradi.

O'qituvchi har bir bolaning eshitish, ko'rish organlaridagi kamchiligi, diqqatining tarqoq emasligini sinchiklab o'rganib, ko'ruv va eshituv quvvati zaifroq, shuningdek, past bo'yli o'quvchilarni oldingi partalarga o'tqazadi.

O'quvchilar gap, so'z, bo'g'in, tovush bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalarning eshitish va so'zlash qobiliyatini mantiqiy fikrlashini o'stirishga doir, shuningdek, o'qituvchining ovozigacha ergashib she'rilar yodlash, hikoyachalar mazmunini aytib berish, rollarga bo'lish kabi mashqlar o'tkaziladi.

Suhbat tashkil etilib, suhbatning mazmuni asosida rasmlar chizdiriladi. Qog'oz, loy, plastilindan ayrim predmetlar (bolalarning o'zlari chizgan uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar, gul, o'yinchoq kabilar) ning shakllari yasattiriladi.

Nutqni analiz qilishga o'rgatishda, asosan, analitik mashqlardan foydalaniladi. Bunda o'quvchilar gapni so'zlarga bo'lish yuzasidan dastlabki amaliy mashqlarni bajaradilar.

"Alifbe"da berilgan rasmlarga qarab birinchi sinf o'quvchilariga mos, ular osonlik bilan so'zlarga ajratadigan gaplar tuzish mumkin.

Masalan, "Alifbe"ning dastlabki sahifalaridagi rasmga qarab, o'quvchilar "Bolalar o'ynayaptilar", "Qizlar ko'ptok o'ynayaptilar" kabi gaplarni aytadilar.

So'zni bo'g'inlarga bo'lishni o'rgatishda ham "Alifbe"dagi